

Kitob tuman Tibbiyot birlashmasining tanlov ishtirokchilar takliflarini ko'rib chiqish va baholash

Komissiyasining yig'ilish bayonnomasi № 02

“7” yanvar 2022 yil

Kitob tumani

Komissiya raisi: - SH.X.Gapparov
 Komissiya kotibi: - A.Xoligov
 Yig'ilishda qatnashdilar jami 7 kishi

Kun tartibida ko'rildigan masala .

Kitob tuman Tibbiyot birlashmasida davolanuvchi bemorlarni dori-darmon va bog'lov vositalari bilan ta'minlash maqsadida dori-darmon va bog'lov vositalarini xarid qilish uchun tanlov asosida ulgurji savdo qiluvchi korxonalaridan sifatlari dori-darmon va bog'lov vositalarini xarid qilish to'g'risida.

Kun tartibidagi masala yo'zasidan komissiya raisi SH.X.Gapparov so'zi: birlashmamizda davolanayotgan bemorlarni dori-darmon va bog'lov vositalari bilan o'z vaqtida ta'minlashimiz uchun ulgurji dori-darmon va bog'lov vositalari bilan savdo qiluvchi xususiy firmalar bilan iqtisodiy aloqalar olib borishimiz kerak.

Tashkilotimiz tomonidan 2022 yil yanvar oyi dori-darmon va bog'lov vositalarini xarid qilish bo'yicha 3(uch)ta firmadan, ya'ni qo'yidagi Vatan farm mchj , Kitob farm mchj va SHaxrisabz Farm MCHJsidan dori-darmon va bog'lov vositalarini ulgurji sotish narxlar bo'yicha tijorat takliflari berilgan.

Bizning shifoxonamizga o'zlarini tijorat takliflari taklif etgan korxonalarni narxlarini birgalikda tanlov tariqasida komissiya a'zolari ko'rib chiqib o'zlarini fikrlarini bildirishsin.

Ushbu takliflarni ko'rib chig'ish jarayonida tanlov komissiyasi korxonalarning takliflarni o'rganib chiqayotganda, maxsulotlarni sifati, narxi, olib kelinayotgan masofani o'zoqyaqinligi, maxsulotlarni o'z vaqtida etkazib berish, dori-darmon va bog'lov vositalari bilan ta'minlash imkoniyatlarini xisobga olib birgalikda korxonalaridan taklif qilishgan narxlarini ko'rib chiqamiz..

| № | Dori-darmon va bog'lov vositalari nomi | t/r | Ulchov Birli gi | Narxi,sum | | |
|----|--|-----|-----------------|-----------------|----------------------|-----------------|
| | | | | Vatan farm mchj | SHaxrisabz farm mchj | Kitob farm mchj |
| 1 | Etanol spirt 70% 50ml | | fl | 1380 | 1408 | 1435 |
| 2 | Lidokain 2% 2ml №10 | | up | 3450 | 3519 | 3588 |
| 3 | Tioktat dialipon tur 1,2% 50ml №10 | | up | 364320 | 371606 | 378893 |
| 4 | Dekstroza 40% 10x10 glyukoza | | up | 4600 | 4692 | 4784 |
| 5 | Bendazol dibazol 2ml №10 | | up | 3910 | 3988 | 4066 |
| 6 | Nekitamed 2ml №10 kardiamin | | up | 19800 | 20196 | 20592 |
| 7 | Metoklopiramid 0,5% 2ml №10 | | up | 9200 | 9384 | 9568 |
| 8 | Piratsetam 20% 5ml №10 | | up | 9200 | 9384 | 9568 |
| 9 | Natriy xlорид 0,9% 200ml | | fl | 3520 | 3590 | 3661 |
| 10 | Kofein benzoat natriy 1ml №10 | | up | 6700 | 6834 | 6968 |

Tanlov komissiyasi a'zolari tibbiyot birlashmamizga taklif etgan tijorat takliflarni ko'rib chiqib, «Vatan farm mchj» MCHJsi bergan tijorat takliflarda ko'rsatilgan dori-darmon va bog'lov vositalari arzonligi, sifatliligi, o'z vaqtida ta'minlab berá olish bo'yicha imkoniyatlari borligi va xar tomonidan qo'layligini inobatga olgan xolda, ushbu «Vatan farm mchj» MCHJdan 1 978 000 ,00 so'mlik dori-darmon va bog'lov vositalarini xarid qilishni maql topishdi va bir ovozdan tanlov komissiyasi

QAROR QILADI :

1. «Vatan farm mchj» MCHJsi g'olib deb tan olinsin.
2. «Vatan farm mchj» MCHJsi tomonidan tavsija etilgan 1 978 000 ,00 so'mlik dori-darmon va bog'lov vositalarini o'z vaqtida olib kelish dorixona mudiri A.M.Sultonovga yuklatilsin.
3. Ushbu «Vatan farm mchj» MCHJsi tomonidan tavsija etilgan 1 978 000 ,00 so'mlik so'mlik dori-darmon va bog'lov vositalari uchun to'zilgan shartnomaviy va buxgalteriya xisob xujzatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish bosh xisobchi E.K.Hamdamovga yuklatilsin.
- 4.Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Komissiya raisi Kitob tuman tibbiyot birlashma boshlig'i:

Kitob tuman tibbiyot birlashmasi iqtisodiy va umumiyl

masalalar bo'yicha boshliq o'rinosari:

Kitob tuman tibbiyot birlashma iqtisodchisi:

Kitob tuman tibbiyot birlashma boshliq o'rinosari:

Kitob tuman tibbiyot birlashma ichki kasalliklar bo'lim mudiri:

Kitob tuman tibbiyot birlashma dorixona mudiri:

Kitob tuman tibbiyot birlashma jarroxlilik bo'lim mudiri:

SH.X.Gapparov

S.L.Muxammadiyev

SH.S.Toshpulatov

Z.M.Xayrullaev.

E.B.Xasanov.

A.M.Sultonov.

I.SH.Bobomurodov

SHARTNOMA 62
(*dori-darmonlar yetkazib berish bo'yicha*)

 Yanvar 2022 yil.

«Vatan Farm» ma'suliyati cheklangan jamiyat nomidan jamiyat boshqaruv direktori **M.Abdieva** o'z faoliyatida jamiyat Ustavi bo'yicha harakat qiluvchi va bundan keyin «Yetkazib beruvchi» deb yuritiluvchi bir tomonidan va **Kitob tumanı Tibbiyot birlashmasi rahbari SH.Gapparov** o'z faoliyatida korxona Ustavi bo'yicha harakat qiluvchi va bundan keyin «Sotib oluvchi» deb yuritiluvchi ikkinchi tomonidan o'zlarining imzolari va O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonun talablariga asosan ushbu shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1 «Yetkazib beruvchi» «Sotib oluvchi»ning bir marotabali yoki yillik talabnomasi asosida dori-darmonlar va psixotrop, giyohvand dori vositalarini hamda prekursorlarni, etil spiritini, tibbiyot mahsulotlarini hamda dorixona sharoitida tayyorlanadigan dori-darmonlarni kelishilgan miqdorlarda va narxlarda yetkazib berishni, «Sotib oluvchi» esa shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan spetsifikatsiyada ko'rsatilgan dori – darmonlar qiymatini «Yetkazib beruvchi» bankdagi tegishli hisob raqamiga kelishilgan muddatda o'tkazib berish shartlarini o'z zimmasiga oladilar.

1.2 Shartnomaning umumiy qiymati: 1978000 so'm etib belgilanadi.

(Bir million to'qqiz yuz yetmish sakkiz ming s'om)

Tovar qiymati so'mmasida QQS mavjudligi 0 so'm

(QQS bilan, QQSSiz)

II. MAHSULOT SIFATI

2.1 «Sotib oluvchi»ga O'zbekiston Respublikasi farmakologik ro'yxatidan tibbiyotda ishlatalishiga ruxsat etilgan sifat markirofka va o'ramlari farmaseftik va texnik talablariga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan ishlatalish muddati 50% dan kam bo'limgan dori-darmonlar va tibbiy mahsulotlar yetkazib beriladi.

2.2 «Sotib oluvchi» yetkazib berilgan tovarlarning qabul qilinishini ta'minlaydigan barcha zarur harakatlarni amalga oshiradi. Qabul qilinadigan tovarlarni qabul qilish jarayonida sifatini tekshirib, qabul qilishi shart.

2.3 «Sotib oluvchi» qabul qilingan tovarlarning miqdori, sifatini tekshirish va tovarlarning aniqlangan nomuvofiqliklari va kamchiliklari to'g'risida «Yetkazib beruvchi»ni tovar qabul qilingandan so'ng 24 soat ichida yozma ravishda xabardor qilishi kerak.

2.4 «Yetkazib beruvchi»ning omborxona hududidan tovarlar olib chiqilgach, tovarning sifati va miqdoriga «Sotib oluvchi» to'liq javobgar bo'ladi.

III. MAHSULOTLARNING YETKAZIB BERISH SHARTLARI

3.1 Mahsulotlar «Istemolchi»ga o'zaro kelishilgan transport vositalarida to'lov talabnomalari va boshqa xarajatlari bilan qo'shib jo'natiladi. Yukni jo'natish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar «Istemolchi»ning zimmasiga yuklatiladi.

«Istemolchi» yukni o'z transportida olib ketishi bilan bog'liq sarf xarajatlar bu hisobga kirmaydi.

3.2 «Yetkazib beruvchi» ijtimoiy himoyalangan kasalliklar bo'yicha imtiyozga ega bo'lgan bermorlarga imtiyozli retsept asosida dori-darmonlarni yetkazib beradi.

IV. TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI

4.1 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi" tomonidan taqdim etilgan hisob faktura bo'yicha tovarlarning soni va sifatini tekshirib olgанидан so'ng topshirilgan tovarlarning sifati va soni bo'yicha "Yetkazib beruvchi" hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4.2 Agar yetkazib berilgan tovarlarning sifati texnik xarakteri standartlarga to'g'ri kelmaydigan taqdirda "Sotib oluvchi" tovari qabul qilmasligi mumkin.

4.3 "Sotib oluvchi" tovari sifati, soni yoki standartlari kelishilgan miqdordagi yoki standartdagiga nomuvofiq kelgan taqdirda tovarlarni almashtirishni talab qilishi mumkin.

V. HISOB-KITOB QILISH SHARTLARI

5.1 Ushbu shartnoma buyicha to'lov O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 16-martdagi №139-sonli qaroriga binoan byudjet tashkilotlarining tovar, (ish, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar majburiy tarzda g'aznachilik bo'linmalaridan ro'yxatdan o'tkazilib yetkazib berilayotgan dori-darmonlar haqini umumiy qiymatini oldindan 30% (593400) so'm pul o'tkazib, qolgan 70% (1384600) so'mni dori-darmon mahsulotlarini to'liq olingandan so'ng 30 (o'ttiz) bank ish kuni ichida to'lab beradi (oldindan 100% to'lov amalga oshiriladigan holatlar buhdan mustasno).

5.2 13 toifadagi bermorlarga beriladigan imtiyozli dori-darmonlarni qiymatini joylardagi shifoatxona ma'muriyati «Yetkazib beruvchi»ga oldindan 100% to'lovnii amalga oshirishi shart.

4.3 «Sotib oluvchi» tomonidan mazkur shartnomani 4.1 bandida ko'rsatilgan muddat ichida olingan dori-darmonlarni qolgan qiymatini to'lab bermasa, dori-darmon bilan ta'minlash to'xtatiladi.

VI. TOMONLARNING MULKIY JAVOBGARLIGI

6.1 Tomonlar ushbu shartnomanini qisman yoki to'liq bajarmaganliklari uchun mulkiy javobgardirlar.

6.2 Shartnomaning 2.1-bandiga asosan «Yetkazib beruvchi» tomonidan sotilgan dori - darmon sifatsizligi tegishli hujjatlar bilan tasdiqlansa u holda ta'minotchi sifatsiz dori-darmonni sifatlari dori-darmon bilan almashtirib beriladi va bu bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

6.3 Shartnomaning 4.1 bandiga asosan iste'molchi dori-darmonni to'lanmagan qiymatini bir oydan kechiktirib to'lashga yo'l qo'ysa kechiktirib to'lanayotgan so'mmadan har bir kun uchun 0.4 % penya (lekin penya miqdori olingan dori

darmonlarning umumiyligi qiyamatini 50% dan oshmasligi lozim) va shartnoma shartlarini bajarmaganliklari uchun 15 % jarima to'laydi.

6.4. «Yetkazib beruvchi» belgilangan muddatlarda yetkazib berilishi lozim bo'lgan dori darmonlarni o'z vaqtida yetkazib bermasa, kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatni barcha qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq penyaning so'mmasi yetkazib berilishi lozim bo'lgan dori-vositalarini umumiyligi qiyamatini 50% dan oshmasligi kerak. Shartnoma shartlarini bajarmaganligi uchun 20% jarima to'laydi.

VII. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

7.1 «Yetkazib beruvchi»ning majburiyatları:

7.1.1 «Yetkazib beruvchi» "Sotib oluvchi"dan buyurtma qabul qilganidan so'ng buyurtmada ko'rsatilgan tovarlarni 25 ish kuni muddatida ushlab turish majburiyatini oladi.

7.1.2 «Yetkazib beruvchi» "Sotib oluvchi"ga buyurtmaning to'lovlar va hujjatlarni rasmiylashtirishni amalga oshirganidan so'ng 5 ish kuni mobaynida sotib oluvchi bilan kelishilgan tartibda tovarlarni yetkazib berish majburiyatlarini oladi.

7.2 Yetkazib beruvchi"ning huquqlari

7.2.1 "Yetkazib beruvchi" o'rtada qarzdorlik vujudga kelgan hollarda tovar yetkazib berishni to'xtatish huquqiga ega.

7.3. "Sotib oluvchi"ning majburiyatları:

7.3.1 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"ga shartnomada ko'rsatilgan mablag'ni o'z vaqtida to'lab berish majburiyatini oladi.

7.4 "Sotib oluvchi"ning huquqlari:

7.4.1 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"dan to'lov va hujjatlarni rasmiylashtirishni amalga oshirganidan so'ng tovarlarni yetkazib berishni talab qilish huquqiga ega.

7.4.2 "Sotib oluvchi" "Yetkazib beruvchi"dan tovarlarning sifati standartlar bo'yicha sertifikatlarini talab qilish huquqiga ega.

VIII. FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1. Dori-darmon yetkazib beruvchi-sotuvchi fors-major holatlar (majburiyatlarini lozim darajada bajarish uchun to'sqinlik qiluvchi yengib bo'lmas kuch ta'siri: tovar yetkazilayotgan paytda sodir bo'lgan tasodifiy shikastlanish, sotib oluvchi egaligida suv tegishi natijasida tovarning yomon holatga kelishi va boshqa holatlar) natijasida yuzaga keladigan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi

IX. SHARTNOMA MUDDATI

9.1 Ushbu shartnoma ikki tomonlama imzolanib O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2016-yil 22-noyabridagi 88-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 22.12.2016-yilda 2850-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi budget tizimi budgetlarining g'azna ijrosi qoidalariiga muvofiq tegishli tartibda G'aznachilikda ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng yuridik kuchga kiradi. Shartnoma 31-dekabr 2022-yilgacha amal qiladi.

X. UMUMIY QOIDALAR

10.1 Shartnomaga kiritilishi lozim bo'lgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar faqat yozma tartibda amalga oshiriladi va tomonlar imzolab muhrlangandan so'ng asosiy shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

10.2 Ushbu shartnomaga oid lekin shartnomaga kiritilmasdan qolgan barcha holatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari asosida hal etiladi.

10.3 Ajratilgan limit va ko'rsatilgan xizmat doirasida ish olib boriladi.

10.4 Shartnoma majburiyatlaridan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'tasida o'zaro kelishilgan holda hal etiladi. O'zaro hal etilmagan nizolar yuzasidan bir oy muddatda da'vo xati yuboriladi. Hal etilmagan nizolar tegishli tartibda davogar joylashgan hududning Iqtisodiy sudida hal qilinadi

Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

| | |
|---|---|
| <p>Yetkazib beruvchi «Vatan Farm » MChJ Adres: Toshkent shahar Yashnobod t. M.Riyoziy ko'chasi 29 Tel. (886751119) R.s 20208000805139560001 MFO: 01008 Toshkent sh. Hamkorbank ATB Aviasozlik f/l INN -306815000, Ifut-71212 Rahbar:  M.Abdieva</p> | <p>"Sotib oluvchi" Kitob tumani Tibbiyot birlashmasi Katta yo'l -123 uy, INN: 200693709 Shxr: 100022860102327072110054004 Markaziy bank BBXKKM, MFO-00014 O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi Gaznachiligi INN:201122919 x/r-23402000300100001010 IFUT-86100</p> <p>Rahbar:  Sh.X.Gapparov</p> |
|---|---|

2022 yil "21" yanvar dagi

№ 62- sbnli shartnomaga

1- sonli ilc

1- sonli ilova

SPETSIFIKATSİYA

Ta'minotchi

Номи "Vatan Farm" МЧХ
 Манзил Тошкент ш. Яшнабод т. Мавлоно Риёзий 29-үй
 Телефон 88 675 11 19
 X/R _20 20 8000 805 139 560 001
 Казн.Р/С -
 Bank Toshkent sh."Hamkorbank" Aviasozlik f/l
 ИНН 306 815 000

HARIDOR

| № | Mahsulot nomi | O'l.bir' | Soni | Baza narhi | Ust.% | Sotish narhi | Jami so'mma | QQS% | QQS so'mma | So'mma QQS b-n |
|----|-----------------------------------|----------|------|------------|--------|--------------|-------------|------|------------|----------------|
| 1 | Этанол (спирт) 70% 50мл | fl | 600 | 1 200 | 15 | 1 380 | 828 000 | | | 828 000 |
| 2 | Лидокайн 2% 2мл №10 | up | 50 | 3 000 | 15 | 3 450 | 172 500 | | | 172 500 |
| 3 | Тиоктат.Диалипоп тур1,2% 50мл №10 | уп | 1 | 331 200 | 10 | 364 320 | 364 320 | | | 364 320 |
| 4 | Декстроза 40% 10x10 (глюкоза) | up | 9 | 4 000 | 15 | 4 600 | 41 400 | | | 41 400 |
| 5 | Бендазол (Дибазол) 2мл №10 | up | 28 | 3 650 | 7,12 | 3 910 | 109 480 | | | 109 480 |
| 6 | Никетамид 2мл №10 (кордиамин) | up | 8 | 18 200 | 8,79 | 19 800 | 158 400 | | | 158 400 |
| 7 | Метоклопирамид 0,5% 2мл №10 | уп | 7 | 8 990 | 2,34 | 9 200 | 64 400 | | | 64 400 |
| 8 | Пирацетам 20% 5мл №10 | up | 10 | 8 000 | 15 | 9 200 | 92 000 | | | 92 000 |
| 9 | Натрий Хлорид 0,9% 200мл | fl | 40 | 3 200 | 10 | 3 520 | 140 800 | | | 140 800 |
| 10 | Кофеин бензоат натрий 1мл №10 | уп | 1 | 7 200 | -7 | 6 700 | 6 700 | | | 6 700 |
| | | | | | ИТОГО: | | 1 978 000 | | | 1 978 000 |

JAMI: Bir million to'qqiz yuz etmish sakkiz ming so'm

Sotuvchi:

Mijoz:

Sh. L. Copperow

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi. Shartnoma

2. Loyihaning nomi. Dori-darmon yetkazib berish to'g'risida

«Vatan Farm» ma'suliyati cheklangan jamiyati va Kitob tumani Tibbiyat birlashmasi o'rtaida tuziladigan 1978000 (Bir million to'qqiz yuz yetmish sakkiz ming s'om) so'mlik dori-darmon yetkazib berish to'g'risidagi № 62-sonli shartnoma loyihasi.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Kitob tuman tibbiyat birlashmasi tomonidan, markazga 17-yanvar 2022-yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjalariiga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Ashurov

2022-yil 18-yanvar